

Shvis zotli turli seleksiyadagi nasldor buqalar qizlarining III va undan yuqori laktasiyalarda sut mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar	Nasldor buqalar laqabi			
	Peter	Roksi	Demon	Korona
Sigirlar bosh soni	15	15	9	6
Sut mahsuldorligi, kg	4197,7±22,5	4205,±22,3	4711,9±42,5	4698,7±47,7
Sv,%	2,01	1,99	2,55	2,27
Sutdagi yog', %	4,01±0,03	4,13±0,03	4,12±0,06	4,15±0,05
Sv,%	2,76	3,12	4,16	2,53
Tirik vazni, kg	499,5±3,30	523,4±3,16	513,8±1,35	516,0±2,88
Sv,%	2,47	2,26	0,75	1,15
Sut yoi chiqimi, kg	172,1	173,7	194,1	195,0
4%-li sut, kg	4302,6	4341,7	4853,2	4874,9
Sutdorlik ko'effisiyenti, kg	840,4	803,4	917,1	910,6

yuqori sut mahsuldorligini yuzaga chiqardilar, ularning sut mahsuldorligi shvis zotining III va undan yuqori laktasiyadagi sigirlarning andoza talablaridan 997,7-1005,0 kg (31,2-31,4%), sut yog'i chiqimi 53,7-55,3 kg yuqori bo'ldi, sutdorlik ko'effisiyenti sigirlar seleksiyasidan qat'iy nazar, sut tipiga ega bo'lganligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, tadqiqotlarimiz respublikamiz sharoitida shvis

zotli sigirlarning sut mahsuldorligini takomillashtirishda Avstriya va AQSh seleksiyasidagi shvis zotli nasldor buqalardan foydalanish samarali ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa. Shvis zotli yangi yaratilgan sermahsul sigirlarning liniya va oilalaridan urchitishda keng foydalanish, ularning avlodlarini joriy etish, tanlash va juftlash ishlarini oilalarga mansubligini hisobga olgan holda olib borish taklif etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Аширов М.И. и др. Современный швиский скот и его продуктивность. Ж "Зооветеринария", № 7, 2015, с. 26-27.
2. Ashirov M.I. Sutdor qoramollar seleksiyasi. Monografiya, T., 2017, 380 b.
3. Чернушенко В.К., Листратенкова В.И., Колсов Д.А., Татуева О.В. Влияние семейств на создание и совершенствование типа Смоленского бурого швиского скота. // Ж. «Зоотехния», №7, 2009, с.6-7.
4. Сивкин И.В., Стрекозов Н.И., Волков С.А., Гусев И.В., Неживова О.К. Опыт разведения шведской красной породы в Центральной России. // Ж. «Зоотехния». №2, 2011, с. 2-5.

UO'T: 636.22./28.082

SHVIS ZOTLI AVSTRIYA SELEKSIYASIDAGI SIGIRLARNING O'ZBEKISTON SHAROITIDA SUT MAHSULDORLIGI

Bahriddinov Fayoziddin Bahriddinovich,
Farg'ona davlat universiteti (DSc) doktoranti.

Annotatsiyas. Tadqiqotlarda shvis zotli Avstriyadan keltirilgan sigirlar bizning o'zimizga xos iqlim sharoitimizda sut mahsuldorligi bo'yicha yuqori irsiy salohiyatini yuzaga chiqardilar. III va undan yuqori laktasiyalarda sigirlarning sut miqdori I laktasiyasiga nisbatan 35,4%, sut yog'i chiqimi 36,7%, 4%-li sut miqdori 36,8%, tirik vazni 35,8% oshganligi aniqlandi. Laktasiyasidan qat'iy nazar, sigirlar xar 100 kg tirik vazni hisobiga yuqori miqdorda sut mahsuloti ishlab chiqardilar va mahsuldorlik yo'nalishi bo'yicha irsiy salohiyati yuqori sigirlarning seleksiya guruhlari yaratildi. "Nasl o'zagi" guruhidagi sigirlar 4,02% yog'lilikda 6890,4 kg, "buqa yetishtiruvchi gurux" 3,98% yog'lilikda 8131,2 kg sut mahsuldorligiga ega bo'ldi. Bu guruxlardan yuqori nasl qiymatiga ega podani to'ldiruvchi yosh buzoqlar olib yetishtirish va tayyorlash rejalashtirildi.

Kalit so'zlar: zotli, sigir, sut, mahsuldorlik, poda.

Аннотация. В ходе исследований крупный рогатый скот, привезенный из Австрии, продемонстрировал высокие наследственные характеристики по молочной продуктивности в наших специфических климатических условиях. Установлено, что количество молока составило 36,7%, количество молока в 4% - 36,8%, масса нетто - 35,8%. За исключением периода лактации, крупный рогатый скот давал большое количество молочной продукции на 100 кг чистого веса, и были созданы селекционные группы для получения крупного рогатого скота с высокой наследственностью по уровню продуктивности. Крупный рогатый скот, принадлежащий "Насло'заци" с 4,02% сливочного масла, произвел 6890,4 кг молочной продукции, в то время как быки-производители с 3,98% сливочного масла произвели 8131,2 кг молочной продукции. Было организовано отбор и разведение телят, которые имеют высокую наследственную ценность для стада.

Ключевые слова. порода, корова, молоко, продуктивность, партии

Abstract. In the investigations cattle that have been brought from Austria manifested high hereditary features on dairy productivity in our specific climatic condition. It was detected that the amount of milk made 36.7%, milk amount of 4% made 36.8%, net weight made 35.8%. Except lactation cattle produced high amount of dairy products per 100kg net weight and it was developed selection groups of high heredity cattle on productivity level. Cattle which belong to "Naslo'zagi" with 4.02% butter, made 6890.4 kg while bull producing group with 3.98 %, butter made 8131.2 kg of dairy products. It has been arranged to select and breed calves which are of high heredity value of herd.

Keywords: offspring, cattle, milk, productivity, herd.

Kirish. Respublikamizda sut va go'sht ishlab chiqarish xajmini oshirishda urchitish uchun rejalashtirilgan qoramol zotlarining mahsuldorlik xususiyatlarini oshirish va turli omillardan unumli foydalanish katta amaliy ahamiyatga ega. Keyingi yillarda respublikamizda naslchilik bazasini mustahkamlash maqsadida Yevropaning sudor qoramolchiligi rivojlangan mamlakatlardan mahsuldorligi bo'yicha yuqori irsiy imkoniyatlarga ega g'unajinlar keltirilmoqda. Bunday qoramollarning urchitilayotgan sharoitda mahsuldorlik xususiyatlarini to'liq yuzaga chiqarish, ularga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy tadqiqotlarda o'rganish muxim va dolzarb hisoblanadi.

Material va metodlar. Bizning tadqiqotlarimizning obyekti bo'lib Respublikada turli laktasiyalardagi shvis zotli sigirlar hisoblanadi. Tadqiqotlar Andijon viloyatining Asaka tumanidagi "T.Shokirov" naslchilik fermer xo'jaligi podasida o'xshashlik belgilari talablari asosida tanlangan sigirlarda o'tkazildi. Sigirlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari zootexniyada umumiy qabul qilingan usullarda o'rganildi. Sigirlar bir xil sharoitda asraldi, ularni oziqlantirish bir turda bo'lib, sut mahsuldorligini, tirik vaznini, fiziologik holatini hisobga olgan holda tashkil etildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqotlarda shvis zotli sigirlar laktasiyasidan qat'iy nazar, yuqori sut mahsuldorligini

yuzaga chiqardilar (1 jadval).

Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, ho'jalikdagi shvis zotli sigirlar laktasiyasidan qat'iy nazar, sut mahsuldorligi bo'yicha irsiy imkoniyatlarini yaxshi darajada yuzaga chiqardilar va laktasiyalar oraliq'ida sut mahsuldorlik darajasi yaxshi o'sish sur'atiga ega bo'ldi. Jumladan, III va undan yuqori laktasiyalardagi yetuk yoshli sigirlarda sut miqdori I laktasiyaga nisbatan 1039,5 kg (35,4%), sut yog'i chiqimi 74,5 kg, 4%-li sut miqdori 1861,3 kg, tirik vazni 174,8 kg oshdi. Sudorlik koeffitsiyenti laktasiyasidan qat'iy nazar, sigirlarda yuqori ko'rsatkich bilan tavsiflandi va bu ular yaqqol sut tipiga ega bo'lganligidan dalolat berdi.

Biz tadqiqotlarimizda eng sermahsul sigirlar hisobidan seleksiya guruhlarini shakllantirdik (2 jadval).

2 jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, tajriba podasida sermahsul shvis zotli sigirlarning seleksiya guruhi yaratildi, bu sigirlar yuqori irsiy salohiyatga ega. "Buqa yetishtiruvchi guruh"dagi sigirlarning sut miqdori "nasl o'zagi" guruhidagi tengqurlaridan 1240,8 kg ($R>0,999$), sut yog'i chiqimi 46,6 kg ($R>0,999$), 4%-li sut 1165,7 kg ($R>0,999$), sudorlik koeffitsiyenti yuqori bo'yichanligi aniqlandi. Bu ma'lumotlar yuqori irsiy imkoniyatlarga ega sermahsul shvis zotli sigirlarning seleksiya podasi yaratilganligidan dalolat beradi.

1 jadval.

Tajriba podasida shvis zotli turli laktasiyalardagi sigirlarning sut mahsuldorligi va tirik vazni ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Laktasiyasi			
	I		III va undan yuqori	
	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	$S_v, \%$	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	$S_v, \%$
Sigirlar bosh soni	15		15	
Sut miqdori,kg	5050,9 $\pm$ 57,8	10,30	6890,4 $\pm$ 182,6	18,36
Sut tarkibidagi yog',%	4,01 $\pm$ 0,01	2,25	4,02 $\pm$ 0,01	1,48
Sut yog'i chiqimi, kg	202,5 $\pm$ 7,34	11,1	277,0 $\pm$ 7,16	10,8
4%-li sut miqdori,kg	5063,5 $\pm$ 186,7	11,2	6924,8 $\pm$ 190,5	11,7
Sudorlik koeffitsiyenti,kg	1033,3 $\pm$ 28,3	8,72	1038,3 $\pm$ 30,6	8,8
Tirik vazni,kg	488,8 $\pm$ 2,24	4,15	663,6 $\pm$ 6,41	6,70

2-jadval.

sigirlarining sut mahsuldorligi va tirik vazni

Ko'rsatkichlar	Sigirlarning seleksiya guruhlari			
	"nasl o'zagi"		"buqa yetishtiruvchi guruh"	
	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	$S_v, \%$	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	$S_v, \%$
Bosh soni	15		15	
Sut miqdori,kg	6890,4 $\pm$ 182,6	18,36	8131,2 $\pm$ 107,8	3,51
Sut tarkibidagi yog',%	4,02 $\pm$ 0,01	1,48	3,98 $\pm$ 0,02	1,16
Sut yog'i chiqimi,kg	277,0 $\pm$ 7,16	10,8	323,6 $\pm$ 4,13	3,42
4 %-li sut miqdori, kg	6924,8 $\pm$ 190,5	11,7	8090,5 $\pm$ 103,7	3,46
Sudorlik koeffitsiyenti,kg	1038,3 $\pm$ 30,6	8,8	1117,7 $\pm$ 11,8	2,78
Tirik vazni,kg	663,6 $\pm$ 6,41	6,7	727,5 $\pm$ 7,49	2,72

Biz tadqiqotlarda III va undan yuqoridagi laktasiyalardagi sigirlarning tirik vazniga bog'liqlikda sut mahsuldorligini o'rgandik

Tadqiqotlarda biz turli laktasiyalardagi sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash xususiyatlarini ham o'rgandik.

Xulosalar. 1. Shvis zotli sigirlar sut mahsuldorligi bo'yicha

yuqori irsiy salohiyatga ega va uni respublikamiz sharoitida yaxshi darajada yuzaga chiqardilar.

2. Shvis zotli sigirlarning irsiy salohiyatidan yuqori mahsuldor podalar yaratishda, ulardan olingan naslli buzoqlardan podalarni to'ldirishda keng foydalanish tavsiy etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ashirov M.I., Sodiqov K., Nasriddinov Yo. Shvis zotli sigirlarning sut mahsuldorligini takomillashtirish. J. "Zooveterinariya". Toshkent, 2014, №9, 32-33 b.

2. Аширов М.И., Соатов У.Р. Продуктивность коров швисской породы в зависимости от типов телосложения. Ж. "Молочное и мясное скотоводство". Москва, 2015, №6, с. 21-23.

3. Аширов М.И., Насриддинов Ё., Аширов Б., Рузибоев Н. Современный швисский скот и его продуктивность. Ж. "Зооветеринария". Тошкент, 2015, №7, с. 26-28.

4. Аширов М.И., Соатов У.Р. Связь селекционных признаков с типами телосложения коров. Ж. "Зооветеринария" Тошкент, 2016, №3, с. 25-27.

5. Ashirov M., Sodiqov K., Nasriddinov Yo., Ashirov B., Ro'ziboyev N. Shvis zotli sigirlarning yangi oilalari. J. "Zooveterinariya", Toshkent, 2016, №2, 29-31 b.

6. Ashirov M.E., Yo'ldiyev D.Sh., Tojiahmedov O.T., G'oziyev A.M., Nasriddinov Yo. Yangi liniyalar-seleksiya yutug'i. J. "Zooveterinariya", Toshkent. 2016, №5, 24-26 b.

UO'T: 636.22./28.082

SHVIS ZOTLI YANGI YARATILGAN LINIYALARGA MANSUB SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIK KO'RSATKICHLARI

Bahriddinov Fayoziddin Bahriddinovich,
Farg'ona davlat universiteti (DSc) doktoranti.

Annotatsiya. Ilmiy tadqiqotlarda tajriba podalarida shvis zotining sermahsul sigirlar seleksiya guruxlariga ajratilgan va yangi liniyalarga, oilalarga xos sigirlarning sut mahsuldorlik xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqotlarda yangi liniyalardagi sigirlarning sut miqdori shvis zotining andoza talablaridan 6-979,4-1029 kg., seleksiya guruxlarida esa 59,3-99,8% oshganligi aniqlangan. Shuningdek sigirlar ozuqani yaxshi darajada sut bilan qoplash xususiyatlariga ega bo'lgan.

Kalit so'zlar: zot, shvis, liniya, sut, yog', ozuqa.

Аннотация. В научных исследованиях в экспериментальных стадах продуктивные коровы породы швис были отнесены к селекционным группам и изучены молочные продуктивные особенности коров, характерные для новых линий, семейств. В исследованиях удои коров новых линий превышают стандартные требования породы швис на 6-979,4-1029 кг., однако в селекционных группах было обнаружено увеличение на 59,3-99,8%. Также коровы обладали хорошими молочными качествами покрытия корма.

Ключевые слова: порода, швис, линия, молоко, жир, корм.

Abstract. In scientific research in experimental herds, productive Schwyz cows were assigned to breeding groups and the dairy productive characteristics of cows characteristic of new lines and families were studied. In studies, the milk yield of cows of new lines exceeded the standard requirements of the Schvis breed by 6-979.4-1029 kg, however, an increase of 59.3-99.8% was found in the breeding groups. The cows also had good dairy qualities of the feed coating.

Key words: breed, schwyz, line, milk, fat, feed.

Kirish. Respublikamizda shvis zotli qoramollar tog'oldi mintaqalarida urchitishga rejalashtirilgan muhim zot bo'lib hisoblanadi. Bu zot sigirlari turli tuproq-iqlim sharoitlariga yaxshi moslashuvchanligi, yuqori sut mahsuldorligi va sutining sifat ko'rsatkichlari, ozuqani yaxshi darajada mahsulot bilan qoplash va pushtdorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu zotning sigirlari mahsuldorligi bo'yicha irsiy imkoniyatlarini to'liq imkoniyatga chiqarish, sermahsul seleksiya podalarini, yangi liniya va oilalarini, tipini yaratish bugungi kunda muhim vazifalardan biri va dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: shvits zotli qoramollarning seleksiya va mahsuldorlik sifatlarini oshirishning ilmiy asoslari hamda amaliy usullaridan foydalangan holda mahalliy va chetdan keltirilgan sigirlarning sut mahsuldorligini takomillashtirish.

Tadqiqot usuli. Ilmiy tadqiqotlarda shvis zotli sigirlarning sut mahsuldorlik ko'rsatkichlari zootexniyada umumiy qabul qilingan usullarda o'rganildi. Tadqiqotlar Andijon viloyatining shvis zotli qoramollarni urchitadigan yetakchi naslchilik podalarida o'tkazildi. Sigirlarni oziqlantirish va asrash sharoitlari birxil bo'ldi.

Tadqiqot natijalari. Tajriba podalarida turli liniyalarga xos sigirlar quyidagi sut mahsuldorligi bilan tavsiflandi (1-jadval).

1-jadvaldan ko'rinishicha, o'rganilgan Roksi liniyasidagi sigirlarning sut mahsuldorligi Emil liniyasidagi sigirlarnikidan 510,8 kg (12,2%) sut yog'i chiqimi 30,5 kg (18,5%) yuqori bo'ldi. Sutdorlik ko'effitsienti Emil sigirlarida 14 kg (1,6%) yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Sut mahsuldorligi bo'yicha rekordchi sigirlarni yetishtirish nafaqat sut ishlab chiqarish hajmini oshirishda, balki ko'plab